
On the Research of Paradigms in Linguistics

Makhsudova Nilufar Abdurasulovna

makhsudova-nilufar@mail.ru

Doctoral Student,

Doctor of Philosophy in Philological Sciences,

Uzbekistan State World Languages University

Annotation

The scientific article systematically examines the historical stages of the formation of linguistic science and the processes of fundamental scientific paradigm shifts. It is argued that the development of linguistics is not simply a change in theories, but a fundamental transformation of attitudes towards language. The study analyzes the emergence of traditional comparative-historical linguistics, its role in determining the genetic relationship of languages, and the characteristics of the formation of structural linguistics (immanent linguistics), which views language as an internal system. The main part of the article is devoted to the modern linguistic paradigm that emerged as a result of the "anthropocentric turn" in the late 20th and early 21st centuries. The author scientifically demonstrates the necessity of transitioning from classical approaches, which study language in isolation from the human factor, to a modern methodology that analyzes it in an inseparable connection with human consciousness, culture, and social activity. Specifically, the article provides a comparative analysis of the core principles of priority areas in modern linguistics: cognitive linguistics, linguoculturology, and pragmalinguistics. In the course of the research, such principles as interdisciplinary integration, communicability, anthropocentrism, functionalism, and explanatoriness are highlighted, and new scientific directions at the intersection of linguistics with psychology, culturology, and sociology are analyzed. The conclusions put forward by the author can contribute to a deeper understanding of the theoretical issues of linguistics, the identification of trends in modern language development, and the strengthening of the methodological framework of philological research.

Keywords

Paradigm, comparative-historical, structural, anthropocentric, communication, language and speech, culture, cognition, tendency, principle

Tilshunoslikda paradigmalar tadqiqiga doir

Maxsudova Nilufar Abdurasulovna

makhsudova-nilufar@mail.ru

Doktorant,

fil.f.f.d., PhD,

O'zbekistan davlat jahon tillari universiteti

Annotatsiya

Mazkur maqolada tilshunoslik fanining tarixiy shakllanish bosqichlari va undagi fundamental ilmiy paradigmalar almashinuvi jarayonlari tizimli ravishda tadqiq etilgan. Ushbu kichik tadqiqot orqali muallif bu jarayonni shunchaki nazariyalar almashinuvi emas, balki tilga bo'lgan munosabatning tubdan o'zgarishi ekanligini asoslab bergan. Shuningdek, maqolada an'anaviy qiyosiy-tarixiy tilshunoslikning vujudga kelishi, uning tillar genetik qarindoshligini aniqlashdagi o'rni hamda keyinchalik tilni ichki tizim sifatida o'rgangan strukturaviy tilshunoslikning shakllanish xususiyatlari tizimli tahlil qilingan. Maqolaning asosiy qismi XX asr ohiri

va XXI asr boshlarida yuz bergan "antropotsentrik burilish" natijasida yuzaga kelgan zamonaviy tilshunoslik paradigmasiga bag'ishlanadi. Xususan, maqolada bugungi kun tilshunosligining ustuvor yo'nalishlari – kognitiv tilshunoslik, lingvokulturologiya va pragmalingvistikaning asosiy tamoyillari yoritilgan. Tadqiqot davomida, zamonaviy tilshunoslikning antropomarkazlashuv, kommunikativlilik, funksionalizm, eksplanatorlik, madaniy markazlashuv, fanlararo integrallashuv tamoyillari yoritilib, tilshunoslikning madaniyatshunoslik, jamiyatshunoslik va psixologiya kesishgan nuqtalaridagi yangi ilmiy yo'nalishlar tahlilga tortilgan. Mazkur kichik tadqiqotdan olingan natijalari tilshunoslikning nazariy masalalarini chuqurroq anglashda, zamonaviy til taraqqiyoti tendensiyalarini aniqlashga va filologik tadqiqotlarning metodologik bazasini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar *Paradigma, qiyosiy-tarixiy, strukturaviy, antropotsentrik, kommunikatsiya, til va nutq, madaniyat, tafakkur, tendensiya, tamoyil*

К вопросу о парадигмах в лингвистике

Махсудова Нилуфар Абдурасуловна

makhsudova-nilufar@mail.ru

Докторант,

док.ф.ф.н., PhD,

Узбекский государственный университет

мировых языков

Аннотация *В данной статье систематически исследуется исторические этапы формирования лингвистической науки и процессы смены фундаментальных научных парадигм. Обосновывается, что развитие языкознания представляет собой не просто смену теорий, а коренную трансформацию отношение к языку. В исследовании анализируются возникновение традиционного сравнительно-исторического языкознания и его роль в определении генетического родства языков, а также особенности формирования структурной лингвистике, рассматривающей язык как внутреннюю систему. Основная часть статьи посвящена современной лингвистической парадигме, возникшей в результате "антропоцентрического поворота" конца XX- начала XXI веков. Автор научно доказывает необходимость перехода от классических подходов, изучающих язык в отрыве от человеческого фактора к современной метадологии, анализирующей его неразрывной связи с человеческим сознанием, культурой и социальной деятельностью. В частности, в статье проводится сравнительный анализ основных принципов приоритетных направлений современного языкознания: когнитивной лингвистике, лингвокультурологии и прагмалингвистики. В ходе исследование освещаются принципы антропоцентричность, коммуникативность, культууроцентричность, функционализм, экспланатарность, междисциплинарнқй интегративность и анализируется новые научные направления на стыке лингвистики с культурологией, социологией и психологией. Выводы выдвинуты автором, способствуют более глубокому пониманию теоритических вопросов языкознания, определению тенденции*

современного развития и укреплению методологической базы филологических исследований.

Ключевые слова *Парадигма, сравнительно-исторический, структурный, антропоцентрический, коммуникация, язык и речь, культура, мышление, тенденция, принцип*

Kirish

Ilmiy tadqiqotlar metodologik asosini belgilashda paradigma atamasini mohiyatini anglash muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki bu bizga tilning o'ziga xos xususiyatlari, lisoniy birliklarni umumiy va spetsifik jihatlari, tilshunoslikda shakllangan, jadal taraqqiy etayotgan ilmiy-nazariy yo'nalishlar hamda konseptual modellar haqida bilish imkonini beradi.

Adabiyotlar tahlili

Tilshunoslikda paradigma tushunchasi dastlab XIX asr ohiri va XX asr boshlarida shvetsariyalik olim Ferdinand de Sossyur tomonidan bir xil xususiyatlarga ega bo'lgan elementlar sinfini belgilash uchun ishlatilgan. Keyinchalik amerikalik faylasuf va tarixchi T.Kunn tarafidan 1962 yilda e'lon qilingan "Ilmiy inqiloblar strukturasi" asari orqali ushbu atama uning dastlabki ma'nosidan farq qiladigan talqinda qo'llanildi.

T. Kunning fikriga ko'ra, paradigma – muayyan davr mobaynida ilgari surilgan muammolar va ularni hal qilish modelini belgilab beruvchi, barcha tomonidan e'tirof etilgan ilmiy yutuqlardir. Paradigma – bu ilmiy hamjamiyat a'zolarini birlashtirib turadigan omildir; shu bilan bir qatorda ilmiy hamjamiyat aynan shu paradigmani tan oluvchi insonlardan tashkil topadi (Огдонова, 2010).

Shunigdek, ma'lum bir sohada vujudga kelgan va rivojlangan ilmiy nazariy qarash va gipotezalarni epistema (M. Fuko), ilmiy tadqiqot dasturi (I. Lakotos), tafakkur qilish usuli (M. Born) deb atash ham urf bo'lgan, ammo ular "paradigma" terminichalik keng

ommalashmadi va turli fanlar miqyosida ilmiy muomalaga kiritilmadi (Хомутова, 2009).

Natijalar

Zamonaviy tilshunoslikda paradigma atamasini quyidagi ma'nolari mavjud:

1. "Paradigma ma'lum umumiy belgi asosida birlashgan va o'zaro zidlanuvchi har qanday lingvistik birliklar sinfini bildiradi" (Nurmonov, 2012).
2. Tilshunoslar hamjamiyati tomonidan birdek tan olingan ilmiy yondashuv, lingvistik tadqiqot usuli va nazariyasi.

Shu o'rinda shuni aytib o'tish joizki, terminning (atama) xususiyatlaridan biri bir ma'noda qo'llanishligidir. Ammo ko'plab terminlar turli fanlarda yoki bir fan doirasida turlicha ma'noda qo'llanilishini kuzatish mumkin. Bu hodisa terminning fanlararo ko'chishi, ilmiy taraqqiyot va turli nazariy maktablarning turlicha talqinlari bilan izohlash mumkin. Biznigcha, paradigma atamasidagi polisemiya ma'no kengayishi va terminning fanlararo ko'chishi natijasida yuzaga kelgan. Chunki, paradigma atamasiga yangi ma'no bag'ishlagan T. Kunn tilshunos olim emas, balki fizik, tarixchi va faylasuf olimlardan edi. Ikkinchidan, paradigmaga berilgan dastlabki ta'rifga ko'ra lisoniy paradigma – til birliklari, grammatik shakllarning umumiy ma'nosiga ko'ra birlashuvchi, xususiy ma'nosiga ko'ra farqlanuvchi tizmidir (Hojiev, 2002). Tilshunoslikdagi ilmiy paradigmalar esa, tilni o'rganishda qo'llaniladigan umumiy nazariy yondashuvlar, ilmiy qarashlar tizimidir. Barcha paradigmalarni birlashtiruvchi xususiyat obyekt birligidir, ya'ni ularning barchasini tadqiqot obyekti til va nutqdir.

Til bir qancha katta, kichik paradigmalardan tarkib topgan katta paradigmadir (Nurmonov, 2012). Kichik paradigma katta paradigmalar tarkibiga kiradi, katta paradigma o'z navbatida kichik paradigmalardan tashkil topadi. Katta paradigma o'zidan kichik paradigma uchun butun, kichik esa, katta uchun qism vazifasin o'taydi. Masalan, tilshunoslikdagi zamonaviy paradigmalar sanalgan kognitiv, lingvomadaniy, aksiolingvistik, psixolingvistik yondashuvlarni birlashtiruvchi g'oya inson omilini markazda turishi, ya'ni antropotsentrismdir. Yoki etimologik, diaxron, areal tilshunoslik kabilar qiyosiy-tarixiy paradigma atrofida jam bo'lgan paradigmalaridir. Barchasini til tizimi birlashtirib turadi.

Ma'lumki tilshunoslik fanining taraqqiyoti bir necha bosqichli ilmiy paradigmalar almashinuvi bilan xarakterlanadi. Tilshunoslik rivojining dastlabki bosqichlarida tillarning kelib chiqishi, genezisi va o'zaro bog'liqligiga e'tibor qaratgan qiyosiy-tarixiy yondashuv ustunlik qilgan bo'lsa, keying davr ilmiy izlanishlarida tilni mustaqil, tizimli va o'zaro bog'langan birliklar tizimi sifatida talqin etuvchi struktural paradigma yetakchilik qila boshladi. Ushbu yo'nalishning asoschisi Ferdinand de Sossyur bo'lib, u tilni ikki asosiy element — til tizimi (**langue**) va nutq amali (**parole**) orqali tahlil qilgan. Struktural paradigma aynan nutqqa e'tibor qaratib, tilning ichki qonuniyatlari, elementlararo munosabatlari va o'zaro qarama-qarshiliklarini sistematik tarzda o'rganadi. Ammo struktur tilshunoslik tilni transtsendent (tashqi omillar orqali izohlash) hodisalardan holi ravishda immanent (hodisaning ichki tabiati) o'rganishga asosiy e'tibor qaratganligi uchun lisoniy faoliyatning subyektalri bo'lgan tinglovchi va shaxs tadqiqotchilar e'tiboridan chetda qolib ketdi (Nurmonov, 2012). Vaholanki, hech bir tilni o'sha tilni yaratgan til sohibidan holi ravishda to'liq o'rganib bo'lmaydi. Shuning uchun XXI asrda tilshunos olimlar lisoniy imkoniyatlarning nutqiy voqelanishida inson omili masalasiga o'z

diqqatini qarata boshlashdi (Nasrullayeva, 2019). Shunigdek, tilga shunchaki tizim sifatida emas, balki unga borliqni anglsh, olam haqidagi bilimlarni to'plash, kelajak avlodga yetkazib berish, taffakur qilish vositasi sifatida qarala boshladi va shu tariqa tilshunoslik maydoniga antropotsentrik paradigma kirib keldi.

Antropotsentrik paradigma inson omilini asosiy o'ringa qo'yadi, til esa inson shaxsini ajralmas xususiyati, uning muhim tarkib toptiruvchi bosh unsuri hisoblanadi (Махмудов, 2012). Zero, tilni insondan tashqari va insonni tildan tashqarida tasavvur etib bo'lmagani kabi, insonni tildan, tilni esa insondan ajratgan holda o'rganib bo'lmaydi.

Muhokama

Shu o'rinda aytib o'tish lozimki, tilshunoslik fani evolutsiyasi jarayonida yuzaga kelgan barcha paradigmalar birday ahamiyatli, ularning hech biri boshqasini inkor etmaydi, aksincha biri ikkinchisini paydo bo'lishiga zamin yaratadi, ya'ni bir paradigma doirasida yechimini topmagan muommolar keyingi paradigmani yuzaga keltiradi (Makhsudova, 2026). Masalan, qiyosiy-tarixiy paradigma etimologiya, lisoniy genetika, diaxron tilshunoslik kabi tilshunoslik fanning mustaqil sohalarini shakllantirgan bo'lsada, qiyoslashni o'zi bilan cheklanish obyekt haqida yetarli va to'g'ri xulosa chiqarishga imkon bermadi. Ushbu paradigma tilni muayyan elementlararo o'zaro munosabatidan tashkil topgan butunlik ekanini, uning ko'p pog'onali ichki tuzilishini, belgili tabiatini yoritib bera olmadi (Nurmonov, 2012). Natijada struktural paradigma yuzaga keldi. Struktural paradigmadagi tilga qattiq tartibga solingan va o'zaro uzviy bog'langan belgilar majmuidan tarkib topgan yahlit bir butun tizim sifatida qarala boshladi va asosiy e'tibor markazi tilning ichki qonuniyatlariga qaratildi.

F. Sossyur aytganidek, tilni belgilar sistemasi deb atasak, struktur-sistem paradigma namoyondalari belgining belgi bilan munosabati, ya'ni sintaktika yoki sintagmatikani o'rganishga urg'u berishgan

(Арютюнова, 1985). Ammo belgi – borliq, borliq – ong – belgi, belgi – subyekt munosabatlari. ularning nazaridan chetda qolgan. Bu esa generativ, so'ngra antropotsentrik paradigmalarni yuzaga kelishiga turtki bo'ldi.

Generativ paradigma 1950-1960 yillarda N. Xomskiy tomonidan ishlab chiqilgan. Ushbu yondashuvga ko'ra, til insonning tug'ma, biologik qobiliyati (kognitiv tizimning bir qismi) sanaladi, ya'ni, barcha inson tug'ilishidanoq til tuzilishining asosiy tamoyillarini belgilab beruvchi universal qoidalar to'plami yoki "universal grammatika" (Universal Grammar) bilan dunyoga keladi.

Ushbu yo'nalish namoyondalari bola tilni tez o'zlashtirishiga sabab sifatida uning miyasida allaqachon shakllanib ulgurgan universal qoqliklar mavjudligini ko'rsatishadi. Shunigdek, ular miyamizdagi tilni o'zlashtirish qurilmasi til bilan aloqaga kirishishimiz bilanoq faollashadi va avtomatik tarzda grammatik qoidalarni ishlab chiqa boshlaydi deb ta'kidlashadi. Ushbu yo'nalish asoschisi N. Xomskiy inson miyasining imkoniyatlari xususida gapirar ekan, grammatikani algoritimga o'xshatadi. Fikrini davomi sifatida, cheklangan so'zlar majmuasi va qoidalar bilan ham miya juda ko'plab, ilgari mavjud bo'lmagan gaplarni ham yaratishi mumkinligini aytib o'tadi. Xullas, Xomskiy lingvistikani matnlarni o'rganuvchi fan sohasi emas, balki til strukturasi orqali inson ongining ishlash mexanizmini tadqiq qiluvchi kognitiv fan deb hisoblaydi. Noam Xomskiyning ushbu yondashuvi tilshunoslikda kognitiv inqilobga sabab bo'lgan.

Demak, XIX asrning ohiri va XX asr boshlarigacha tilshunoslikda differentsiyatsiya yo'nalishi ustuvorlik qilgan. Bu jarayonda tilning ichki qonuniyatlarini o'rganishga asosiy e'tibor qaratilib, shu asosida tilshunoslik tarmoqlarga ajratilgan. XX asrdan keyin esa ilmiy yo'nalishda integratsiya jarayoni ustuvorlik qila boshladi, natijada voqelikni biron bir sohasini tavsirini, ma'lum bir muammoni hal qilishda bitta fan doirasida

emas, balki bir nechta fan kesishgan nuqtasida amalga oshirish ehtiyoji sezildi (Islamdjanova, 2021). Bunda o'zaro ta'sirning eng keng tarqalgan shakllari mavjud bo'lib, ular quyidagilar:

1. Bitta fan obyektini boshqa fan uslubi, metodi orqali o'rganish natijasida lingvostatistika, kvantativ lingvistika kabi fanlar vujudga keldi;
2. Fanlardan birini tadqiqotning an'anaviy obyektiga ta'siri natijasida tilshunoslikda lingvosemiotika yoki bitta obyektini turli fanlar tomonidan o'rganilishi bilan kognitiv tilshunoslik, sotsiolingvistika, psixolingvistika, lingvokulturologiya, pragmalingvistikasi kabi yangidan yangi fan tarmoqlar yuzaga keldi. Zero, V. Maslova ta'kidlaganidek, zamonaviy tilshunoslikning asosiy tendensiya va tamoyillaridan biri integrativlikdir (Maslova, 2018). E. Kubryakova esa, buni ekspansionizm deb ataydi va bunda u tilshunoslik o'z chegaralarida chiqib, yangi fanlar bilan munosabatga kirishgan holda (psixologiya, sotsiologiya, biologiya, genetika) kengayishini nazarda tutgan (Хомытова, 2009).

Tilshunoslikning zamonaviy paradigmalariga integrativlikdan tashqari, antropomarkazlashuvlilik, kommunikativlilik, fuksionallik eksplanotarlilik tamoyillari xosdir. XXI asr tilshunosligi inson faktorini tilda, tilni insonda aks ettirish qonuniyatiga asoslangan antropomarkazlashuv tamoyiliga muvofiq shakllantirilgan (Панченко, 2010). Bunday tadqiqotlar taraqqiyotiga nemis olim F.Gumboltning tilning ichki va tashqi shakli xususidagi go'yalari turtki bo'ldi. Unga ko'ra til inson ruhiyatining faoliyati sanalib, ikki unsurdan moddiy va ruhiyat tashkil topgan. Moddiy – bu tilning tashqi shakli bo'lsa, ruhiyat ichki shakli demakdir. Ichki shakl xalq ongi, taffakuri, ruhiyati va madaniyati sanalsa, tashqi shakl til qurilishida ishtirok etuvchi belgilar tizimidir. Xalq ruhiyati tilning ichki qismini shakllantirsa, o'z navbatida botiniy shakl o'zini tashqi shakl vositasida namoyon

qiladi. Bunda til faol tarzda inson ongida olam haqidagi tasavvurni ijodiy talqinda rivojlantiradi va yuzaga chiqaradi (Гумбольдт, 1985). Ushbu fikrlar o'zbek tilidagi "shirinso'z" va ingliz tilidagi "stiff upper lip" iboralarini tahlilida o'z tasdig'ini topadi.

O'zbek tilidagi shirin+so'z iborasi sezgi metaforasi (sensory metaphor) asosiga qurilgan bo'lib, taom, yemakka xos belgi – shirin "so'z" leksemalaridagi belgiga metaforik yo'l bilan ko'chgan. Natijada tam sezgisidan nutq sifatiga ko'chirilgan insonning xarakterini ifodalovchi konsept yuzaga kelgan. Shu o'rinda aytib o'tish joizki, insonni akustik (eshitish) sezgisi orqali qabul qilinishi lozim bo'lgan axborot ("so'z") gustator (tam bilish) sezgisi bilan bog'lanmoqda ("shakar"). Bu iborada shirinlik insonga zavq bag'ishlagani kabi, yoqimli so'z ham ruhiyatga shunday ta'sir etadi degan ma'no mavjud. Bu yerda kognitiv model "yaxshi gap" = "shirin tam", ya'ni gapning o'zi moddiy jihatdan shirin bo'lmasada, uning qabul qiluvchi ongida uyg'otgan ijobiy hissiyotlar shirinlik bilan assotsiatsiya qilinadi. Tilshunoslik nuqtai nazaridan esa, bu metofoaning sinestetik turi hisoblanib, bir sezgi a'zosi bilan bilinadigan belgini anglatadigan so'zni boshqa sezish a'zosi bilan bilinadigan tushunchaga nisbatan qo'llash yo'li bilan yuzaga keladigan ko'chma ma'nodir" (Akramova, 2022).

Barchamizga ma'lumki, Sharq, jumladan, O'rta Osiyo xalqlari o'zining shirin va mazali taomlari, shirinliklar tayyorlashning o'ziga xos an'analari, mehmondo'stligi bilan dunyoga mashhur. Mehmonnavozlikning asosiy taomillaridan biri, mehmonni iliq kutib olish, tansiq taomlar va yoqimli so'zlar bilan siylash, iltifot va izzat-ikrom ko'rsatishdir. Ana shu milliy-madaniy xususiyatlarning tildagi aksi "shirinsoz" iborasida namoyon bo'ladi. Masalan shirinso'z konseptida nafaqat muomala madaniyati, balki insonning ma'naviyatini belgilab beruvchi mezonlar, so'z tanlashning nozik jihatlari, odob, hurmat kabi tushunchalar mavjud. Shu bilan bir qatorda "shirinso'zlik" o'zbek xalqida ayollarga xos iffat va nazokat,

erkaklarda esa, olijanoblik va lutfning belgisi sanaladi.

Huddi shunday ingliz tilidagi "stiff upper lip" iborasi ham shunchaki til birligi emas, madaniy kod, inglizlar xos tafakkur tarzini aksidir. Ushbu konseptning lug'aviy ma'nosi quyidagilardan iborat:

1. The ability to stay calm and not show your feelings in a difficult or upsetting situation (LDOCE);
2. Someone who has a stiff upper lip does not show their feelings when they are upset: He was taught to keep a stiff upper lip, whatever happens (Cambridge Dictionary);
3. A quality of remaining calm and not letting other people see what you are really feeling in a difficult or unpleasant situation (Macmillan Dictionary).

Ingliz tilida ushbu ibora keep, have va wear fe'llari bilan birikib, umumiy ma'no hosil qiladi: to keep a stiff upper lip, to have a stiff upper lip, to wear a stiff upper lip. Ushbu ibora so'zma so'z yuqori labning tarangligi sifatida tarjima qilinsada, vazminlik, hissiyotlarni jilovlay olish ma'nosini beradi. Ushbu iboraning vazminlikni ifodalashini psixofiziologik asosi mavjud. Ma'lumki, insonni yig'lashdan oldin labi titraydi. Lab muskullarini doimo nazoratda ushlab turish, inson hissiyotlarini ochiqdan ochiq ifoda etishga to'sqinlik qiladi va shu yo'l orqali butun tanani boshqarish mumkin bo'ladi (Maxsudova, 2024). Bu ibora orqali ingliz xalqi ongida kuchli inson – irodasi orqali o'z tanasini va hissiyotlarini boshqara oladigan insondir degan kognitiv model mavjudligini bilib olish mumkin.

Lingvokulturologik jihatdan esa, ushbu ibora "Englisness" etnomadaniy konseptini bir qismidir. Britaniyaliklar uchun "stiff upper lip" – ideal xulq-atvor namunasi bolib, ushbu konsept ortida shaxsiy chegara (privacy), vazminlik, botiniy his-tuyg'ularini zohir qilmaslik, tuyg'ularini nazorat qilish, djentelmanlik, xushmuomalalik, kamtarlik (understatement) ma'nolari majud.

O'zbek tilida ushbu iboraning to'liq muqobil variant mavjud emas. O'zbek tilida sabrli, vazmin so'zlari ushbu konseptning faqatgina bir qirrasini ifodalaydi xalos.

Shuningdek, "stiff upper lip" ingliz madaniyati uchun pretsedent tushuncha sanaladi, chunki bu xususiyat inglizlarga Viktoriya davridan buyon me'ros bo'lib kelayotgan ingliz xulq-atvor modelidir.

Demak, o'zbek tilidagi "shirinso'z" va ingliz tilidagi "stiff upper lip" milliy nutqiy eiketning bir ko'rinishi bo'lib, biri munosabatlarni yumshatuvchi, axloqiy qadriyat sanalsa, ikkinchisi hissiyotlarni boshqarish va matonat ifodalovchi madaniy etalondir.

Ahlilga tortilgan keyingi so'zlar o'zbek tilidagi "qizilishton", "ko'zoynakli ilon" va uning ingliz tilidagi ekvivalentlari "woodpecker", "cobra" leksemalaridir. Har ikki tilda ham ular jonzot nomlari sanalsada, ularning nomlanishida anglatgan ma'nolarda farqlar mavjud. O'zbek tilidagi "qizilishton" va "ko'zoynakli ilon" nomlari ushbu jonivorlarning tashqi ko'rinishiga asoslangan holda yuzaga kelgan. Markaziy Osiy hududidagi uchraydigan bunday turdagi qushlarning asosan qorni yoki dum ostidagi patlari qizil rangda bo'lib, bir qarashda qush qizil ishton kiyib olganday tasavvur o'yg'otadi. Ko'zoynakli ilon – bu ilonning bo'ynidagi naqshlari ko'zoynakka oxshatilgani uchun shunday atash qabul qilingan. Har ikki misolda ham jonzot nomlanishidagi asosiy urg'u vizual va tashqi tavsifga asoslanmoqda. Biroq, har ikki atamaning ingliz tilidagi nomlanishiga e'tibor qaratsak, jonzotlarning nomlari ish harakati turi va vazifasiga muvofiq tarzda yuzaga kelganligini anglash mumkin. Wood (yog'och) + pecker (teshuvchi), cobra portugalcha "cobra de copello" (qalpoqli ilon) so'zidan kelib chiqqan bo'lib, uning shishish xususiyatiga ishora qilinmoqda. Demak, yuqoridagi misollardan ko'rinib turibdiki, borliq barcha uchun bir hil bo'lsada, lekin uni idrok etish, nomlash turli xalqlarda farq qiladi. Bu farq tilning ichki shaklida namoyon bo'ladi.

Zamonaviy tilshunoslik paradigmalari xos bo'lgan keyingi tamoyil kommunikativlikdir. Ma'lumki, til va nutq o'zaro chambarchas bog'liq, bir-birini taqozo etadigan hodisalardir. Nutq ta'sirli bo'lishi uchun til mavjud bolishi, o'z navbatida til shakllanishida nutq zarurdir (Сафаров, 2008). Bu yerda til va nutq o'zaro aloqaga kirishishi uchun subyekt (adresat va adresant) ishtiroki ham darkor. Shunda tilning asosiy vazifalaridan biri kommunikatsiya yuzaga keladi.

Kommunikatsiya – insonlarni bilish va mehnat faoliyati jaroyonidagi o'zaro ta'sirning o'ziga xos shakli bo'lib, bu jaroyonda axborot, fikr, hissiyot, xulq-atvor sxemalari o'zaro almashiniladi (Maslova, 2018). Kommunikatsiya keng va tor doirada talqin qilinishi mumkin. Birinchisi inson faoliyat shakli, keyingisi ma'noviy axborot almashinuvdir.

Axborot almashinuvni keng tarqalgan usullaridan biri verbal kommunikatsiyadir. Muloqotning ushbu turi matn orqali amalga oshiriladi. Matn esa ma'lum kommunikativ vaziyatda ma'no kasb etadi. Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda kommunikativ vaziyat strukturasi quyidagicha belgilash mumkin: adresant – xabar – vaziyat – aloqa – kod – adresat – dekodlashtirish – interpretatsiya.

Kommunikativ muloqot zanjiri tizimli jarayon bo'lib, unda adresant (kommunikator) ma'lum maqsad va fikrni axborot ko'rinishidagi xabarga aylantiradi, ijtimoiy-madaniy vaziyat ta'sirida tanlagan aloqa usuli orqali (verbal/noverbal) uni yo'llaydi. Bu jarayonda axborot ma'lum bir til yoki ishoralar tizimi orqali kodlanadi, xabarni qabul qilgan adresat xabarni dekodlashiradi va o'zining kognitiv tajribasi va madaniy filtrlari orqali uni interpretatsiya qiladi.

Inson hayotga kelar ekan, til o'rganadi, u orqali boshqalar bilan muloqot kirishadi, o'z madaniyatini anglaydi. Madaniyat inson ongida bolalikdan o'rnatilgan o'ziga xos mental dastur bo'lib, u bizga hayotda sodir bo'ladigan turli vaziyatlarda qanday yo'l tutushimizda filtr vazifasini o'tab, bizga tayyor xulq-atvor namunasini taqdim etadi, o'z navbatida biz unga asosan ish tutamiz. Demak, kommunikativ

faoliyat milliy madaniyatning bir qismi tashkil etadi desak maqsadga muvofiq bo'ladi.

Turli madaniyat vakillari muloqotida dekodlashtirish jaroyoni muvaffaqiyatli kechsada, interpretatsiya bosqichida madaniy filtrlar to'qnashuvi sodir bo'lishi mumkin. Buni E. Xollning "Beyond culture" asarida keltirilgan kontekst nazariyasi orqali isbotlash mumkin bo'ladi. E. Xoll o'z asarida madaniyatlarni yuqori (High-context) va quyi (Low context) kontekstli turlarga ajratib, ularni bir biridan farqli jihatlarini ko'rsatib o'tadi (Hall, 1976) Yuqori kontekstli madaniyatda asosiy ma'no nafaqat so'zlarda balki vaziyat, qarashlar va imo ishoralarda bo'ladi. Bunda adresant barcha gapni ochiq aytmaydi ("gap tagida nimkosa" qoldiradi), adresat esa xabarni tushunishi uchun nafaqat so'zlarni ma'nosini tushunishi, balki intuitsiya orqali vaziyatni idroki yordamida tez ilg'ay olish, ya'ni farosat ilmi kerak bo'ladi. Bunday madaniyatda insonlar o'rtasidagi o'zaro munosabat muhim sanalib, qarindoshlik munosabatlari qadrlanadi va kattalarga hurmat saqlanadi. Muloqot jaroyoni S.Ting-tumi tomonidan taklif qilingan "yuz"ni saqlagan holda muzokara olib borish (insonning ijtimoiy mavqeini saqlash) tamoyilida kechadi (Ting-toomey, 2005). Buni yuqori kontekstli madaniyat vakillari sanalgan o'zbek xalqining quyidagi maqoli orqali tushuntirish mumkin: "Qizim senga aytaman, kelinim sen eshit". Ushbu maqolda asosiy ma'no bevosita qizga emas, bilvosita kelinga qaratilgan ogohlantirish yoki nasihatdir. Bu maqolni maqsadi odob-axloq normalaridan chetga chiqmagan holda, niyatni eksplisit tarzda bayon etmasdan turib ham tinglovchiga ta'sir o'tkazish. Til bu yerda shunchaki tizim

emas, insoniy munosabatlarni yumshatuvchi vosita, strategiya ham sanaladi. Bundan tashqari, bu yerda o'zbeklarga xos odob-axloq normasi, andisha, istihola kabi tushunchalar yotibdi.

Quyi kontekstli madaniyatlarda axborot bevosita eksplisit tarzda aniq, lo'nda, batafsil bayon etiladi. Masalan, quyi kontekstli madaniyat vakillaridan ishni bugun tugatish mumkinmi deb so'ralganda, buni imkoni bo'lmaganda u shunchaki: "Yo'q, bugun rejalashtirgan ishlarim ko'p" deb javob beradi. Bu to'g'riso'zlik, ochiqlik va ish samaradorligi belgisidir. Aynan shu vaziyatda yuqori kontekstli madaniyat vakillari "yo'q"ning o'rniga "Buni bajarish biroz mushkul, ko'ramiz" deya javob bergan bo'lardi. U "yo'q" ni to'g'ridan to'g'ri ishlatmasdan unga ishora qilmoqda.

Zamonaviy tilshunoslikning keyingi ustuvor yo'nalishlaridan biri funksionalizm va eksplanatorlikdir. Birinchisi til va uning birliklarini nima uchun xizmat qilishini tahlil qilsa, keyingisi uning aynan nima sababdan shu tarzda tuzilganini asoslab berishga qaratilgan tamoyildir.

Xulosa

Ushbu kichik tadqiqot orqali shunday xulosaga kelish mumkinki, til shunchaki muloqot quroli emas, balki madaniyat va ong bilan uzviy bog'liq yaxlit fenomendir. E. Sepir o'z vaqtida bashorat qilganidek, tilshunoslik an'anaviy qoliplardan chiqib insoniyatning dunyoqarashini belgilovchi keng qamrovli sohaga aylandi. Bugungi kunda til orqali milliy mentalitet va madaniyatning chuqur semantik asoslarini tadqiq etish ushbu fanning asosiy ustuvor yo'nalishlardan biriga aylandi.

References:

1. Akramova, S. R. (2022). Jamol Kamol she'rlarida sinestetik metaforaning o'ziga xos qo'llanishi. *Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar*, (7).
2. Arutyunova, N. D., & Paducheva, E. V. (1985). Istoki, problemy i kategorii pragmatiki. In *Novoe v lingvistike*. Vol. 16. 3.
3. Humboldt, W. von. (1985). *Yazyk i filosofiya kul'tury*. Progress.

4. Hall, E. T. (1976). *Beyond culture*. Anchor Press.
5. Islamdjanova, X., & Shorasulova, Sh. (2021). *Tadqiqotlarni olib borishda lingvistik metod va yondashuvlar: O'quv-uslubiy majmua*. TDSHU.
6. Makhsudova, N. A. (2026). The evolution of scientific paradigms in linguistics. *International Conference on Linguistics, Literature and Translation*, 24, 59–61. <https://topconferences.us/index.php/ICLLT/article/view/3200>
7. Maxsudova, N. A. (2014). *Ingliz va o'zbek tillari paremiyalarida baholash kategoriyasi* (PhD dissertation). O'zDJTU.
8. Maslova, V. A. (2018). The main trends and principles of modern linguistics. *RUDN Journal of Russian and Foreign Languages Research and Teaching*, 16(2), 172–190. <https://doi.org/10.22363/2313-2264-2018-16-2-172-190>
9. Mahmudov, N. (2012). Tilning mukammal tadqiqi yo'llarini izlab... *O'zbek tili va adabiyoti*, (5).
10. Nasrullayeva, G. S. (2019). *Antropotsentrik metaforaning lisoniy, kognitiv va lingvomadaniy aspekti* (PhD dissertation abstract). Toshkent.
11. Nurmonov, A. (2012). Mustaqillik davrida o'zbek tilshunosligi taraqqiyoti. In *Tanlangan asarlar*. Toshkent.
12. Ogdonova, Ts. Ts. (2010). Nauchnaya paradigma kak klyuchevoe ponyatie sovremennoi nauki o yazyke. *Vestnik Buryatskogo gosudarstvennogo universiteta. Yazyk. Literatura. Kul'tura*, (10), 43–49.
13. Panchenko, V. A. (2010). Vil'gel'm fon Gumbol'dt: Vnutrennyaya forma yazyka kak otrazhenie samobytnosti etnicheskoi kul'tury. *Kul'turologiya*, 396–401.
14. Khomutova, T. N. (2009). Nauchnye paradigmy v lingvistike. *Vestnik Chelyabinskogo gosudarstvennogo universiteta*, (35), 142–151.
15. Hojiyev, A. (2002). *Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati*. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi.
16. Safarov, Sh. (2008). *Pragmalingvistika*. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi.
17. Ting-Toomey, S. (2005). The matrix of face: An updated face-negotiation theory. In W. B. Gudykunst (Ed.), *Theorizing about intercultural communication*. 71–92. Sage.